






## YALPI HUDUDIY MAHSULOT




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020- yilning yanvar-iyunida Navoiy viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM ) hajmi joriy narxlarda 22 111,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 4,3 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 132,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Navoiy viloyatining qo'shgan hissi 8,7 % ga yetdi.



### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		Mlrd. so'm		2019- yil yanvar- iyuniga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar- iyun	2020- yil yanvar- iyun	
	<b>I. YaHM</b>	<b>16 061,6</b>	<b>22 111,5</b>	<b>104,3</b>
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 513,9	21 801,0	104,3
	Mahsulotlarga sof soliqlar	547,7	310,5	104,4
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>15 513,9</b>	<b>21 801,0</b>	<b>104,3</b>
	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 113,5	2 632,8	103,7
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>11 348,1</b>	<b>16 818,7</b>	<b>105,2</b>
	sanoat	10 626,5	15 940,8	105,5
	qurilish	721,6	877,9	100,9
	<b>Xizmatlar</b>	<b>2 052,3</b>	<b>2 349,5</b>	<b>99,6</b>

		Mlrd. so'm		2019- yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da
		2019- yil yanvar-iyun	2020- yil yanvar-iyun	
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	535,9	557,2	94,4
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	340,4	357,1	96,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	1 176,0	1 435,2	102,8

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 22 091,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 % ga yuqoridir.



**Yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**











Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 98,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,4 % ini tashkil etdi.

Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 1,5 % punktga kamaydi va hisobot yilida 12,1 % ni tashkil etdi. Sanoat tarmog`ining ulushi 73,1 % dan iborat bo`lib, 4,6 % ga oshdi, qurilishniki esa 0,7 % punktga tushdi va 4,0 % ga yetdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 10,8 % ni tashkil qildi va o`tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 2,4 % punktga pasaydi.




### Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2019- yil	2020- yil
	<b>I. YaIM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	96,6	98,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	3,4	1,4
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi</b>	<b>13,6</b>	<b>12,1</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)</b>	<b>73,2</b>	<b>77,1</b>
	sanoat	68,5	73,1
	qurilish	4,7	4,0
	<b>Xizmatlar</b>	<b>13,2</b>	<b>10,8</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	3,5	2,6

		2019- yil	2020- yil
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	2,2	1,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	7,5	6,6





## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 103,7 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 12,1 %), sanoatda – 105,5 % (73,1 %), qurilishda – 100,9 % (4,0 %), tashkil etdi. Xizmatlar sohasi qo'shilgan qiymatning solishtirma narxlarda kamayishi kuzatildi va 99,6 % ni (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 10,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (94,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa (96,9 %) kamayish va boshqa xizmat tarmoqlarida (102,8 %) o'sish kuzatildi.




### Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2020- yilning yanvar-iyunida iqtisodiyotning sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi kabi tarmoqlari YaHMning mos ravishda 3,6 f.p. (2019- yilning yanvar-iyunida – 0,9 f.p.) va 0,5 f.p. (2019- yilning yanvar-iyunida – 0,6 f.p.) ga o'sishiga hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning oshishi hisobiga YaHMning 0,2 f.p. ga o'sishi ta'minlandi (2019-yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.).



**2020-yil yanvar-iyun oylarida YaIM o'sishida tarmoqlarning hissasi**  
(jamiga nisbatan % da)



2020- yil yanvar-iyunda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 132,0 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 142,2 % va qurilishda – 120,5 % qayd etildi.



**Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi**  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

